

Фалсафа (мантиқ, этика, эстетика) фанидан тест саволлари

№	Test topshirig`i	
1.	Falsafa atamasini fanga birinchi bo`lib kiritgan olimni aniqlang	Pifagor
2.	Olamni bilish mumkin emas, bilimlarimiz to`g`ri va aniq haqiqat darajasiga ko`tarila olmaydi deguvchi faylasuflar.....	agnostiklar
3.	Dunyoqarashning tarixiy turlarini sanab bering	afsonaviy, diniy, falsafiy
4.	Diniy dunyoqarashni qaysi fan o`rganadi?	teologiya
5.	Konfutsiy ta`limotidagi LI tushunchasi qanday ma`noni bildiradi?	Tartib qoida ma`nosini

6.	Lao-Szi ta'limotidagi Dao tushunchsi qanday ma'noni bildiradi?	Qonun, yo'l ma'nosini
7.	“Aflotun do'stim, ammo qonun do'stlikdan ustun turadi” degan ibora qaysi faylasufga tegishli?	Suqrot
8.	Mutakallimlar islom dinining qanday ta'limotini o'rganadilar?	Diniy aqidaviy ta'limotni
9.	Moturudiy bilimlarni qanday turlarga bo'ladi?	diniy va dunyoviy
10.	Islomdagi asosiy yo'nalishlar qaysilar?	Sunniylik, Shialik Xorijiylik
11.	Shariat nima?	Qur'on va sunnadan keyingi muhim manba
12.	Tasavvufning muhim jihatlari haqidagi “Din ilmlarining jonlantirilishi” asari muallifini aniqlang ?	Imom al-G'azzoliy

13.	“Dil ba yoru dast ba kor” shiori tasavvufning qaysi tariqati shioridir?	Naqshbandiya
14.	Farobiy fikricha bilish jarayoni qanday yuzaga keladi?	aql va sezgilar orqali
15.	Hozirgi zamon falsafasidagi ilm va e’tiqod o’rtasida uyg’unlik bor, ular bir-birini to’ldirib turadi deyuvchi oqim tarafdorlarini toping.	Neotomizm
16.	Falsafa – obektiv reallikni emas, balki aniq fanlar qilayotgan ilmiy xulosalarni urganib tahlil qilishi kerak deyuvchi falsafiy oqimni aniqlang	Neopozitivizm
17.	Foydali faoliyatga undovchi falsafiy oqimni toping	Progmaticizm
18.	Ilm-fan tarqqiyotining ijobiyiligini asoslovchi falsafiy yo‘nalish – bu...	Ssientizm

19.	Muayyan narsalar, hodisalar, voqealar va jarayonlarning xilma-xil ko‘rinishlarini ifodalovchi va ular orqali namoyon bo‘luvchi mohiyat bu...	Substansiya
20.	Sobiq ittifoqda hukmron mafkuraga aylangan ta’limot qaysi?	Materialistik
21.	Kelajakda mavjud bo‘lishi ehtimoli bo‘lgan olam nima deb ataladi?	Vertual olam
22.	Mavjudligi shubhasiz, barcha e’tirof etadigan olamga ... deyiladi	Real olam
23.	Borliq hamma narsaning asosidir, u hamma narsaning asosida yotadi degan fikrlar qaysi faylasufga tegishli?	Beruniy
24.	Borliq sezgilarimiz majmuasi degan fikrlar qaysi faylasufga tegishli?	David Yum
25.	Borliqni ob’ektiv reallik bilan materiya bilan aynan bir narsa deb tushuntiruvchi falsafiy oqimni toping	Materialistik
26.	Narsa va xodisalar o‘rtasidagi o‘xshash tomonlarini ifodalovchi tushuncha bu	Ayniyat
27.	Narsa va xodisalar o‘rtasidagi farqli tomonlarini ifodalovchi tushuncha bu	Tafovut
28.	Me’yor nima?	Miqdor va sifat birligi

29.	Sifat- bu ...	Narsalarning ichki va tashqi muayyanligi, narsa qanday bo'lsa shundayligicha ko'rsatib beradi.
30.	Olamdagi narsa va hodisalarning yagona takrorlanmas belgi va xususiyatlarini ifodalovchi kategoriya bu....	Alohidalik
31.	Imkoniyat bu...	Yuzaga chiqmagan voqelik
32.	Muayyan sharoitda kelib chiqadigan voqea hodisaga deyiladi	Zaruriyat
33.	Biror hodisadan oldin kelib, uni vujudga keltiruvchi hodisaga ... deyiladi	Sabab
34.	Real mavjud bo'lgan, yashab turgan narsa-hodisa ... deyiladi	Voqelik
35.	Olamdagi har qanday o'zgarishga deyiladi.	Harakat
36.	Quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon ilgarilab boruvchi xarakter nima deb ataladi?	Rivojlanish

37.	Narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog‘lanishlari, o‘zaro aloqalari va munosabatlarining namoyon bo‘lishi nima deb ataladi?	Qonun
38.	Narsa va hodisalarning bir-birini taqazo etuvchi va shu bilan birga bir-birini inkor etuvchi tomonlariga ... deyiladi.	Qarama-qarshilik
39.	Konkret shart-sharoitlarni inobatga olmaydigan qoida, fikr bu ...	Dogmatika
40.	Turli qarama qarshi nazariyalarni bir-biriga qorishtirib yuboruvchi tafakkur usuli bu...	Eklektika
41.	Narsa va hodisalarning boshqa narsa va xodisalar ta’sirini muayyan tarzda aks etishiga nima deyiladi?	In’ikos
42.	Muayyan guruh, elat, millatga mansub bo‘lgan ayrim kishining ongiga ... deyiladi.	Individual ong
43.	Hayotiy tajribalar asosida vujudga kelgan xulosa va qarashlar majmuyi....	Odatiy ong
44.	Kishilarda voqelikni abstrakt – fikriy aks ettira oladigan qobiliyat asosida paydo bo‘ladigan va rivojlanadigan in’ikosning dastlabki shakli bu...	Tushuncha
45.	O‘rganilayotgan ob’ektni mustaqil o‘rganishda qismlarga, tomonlarga bo‘lish asosida tahlil qilish bu...	Analiz
46.	Xulosada fikr rivoji umumiy bilimdan xususiy bilim tomon yo‘nalishi bu ...	Deduksiya
47.	Insonning sezgi, idrok, tasavvuridan iborat hissiy qobiliyatlari asosida narsalarni maqsadli o‘rganishga nima deb ataladi?	Kuzatish
48.	Ongsizlik nima?	Inson aqliy sohasidan tashqarida ong tomonidan nazoratga olinmaydigan turli ruhiy hodisa va holatlar majmuyi

49.	Materiya nima?	materiya bu – ob’ektiv reallikdir, uni inson sezgilari orqali aks ettiradi
50.	Harakat nima?	harakat bu – umuman o’zgarishdir
51.	Ijtimoiy ong nima?	ijtimoiy ong – his-tuyg’ular, qarashlar, g’oyalar, nazariyalar majmuidir
52.	Substansiya nima?	olamdagi barcha narsalarning negizi, asosi
53.	Insonning ma’naviy ehtiyojlariga nimalar kiradi?	Olamni bilish, dunyoqarash, ma’naviy kamolot yo‘lida intilish
54.	Davlat nima?	Jamiyatni boshqaruvchi, tartibga soluvchi, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi muassasa
55.	Milet falsafiy maktabining asoschilarini aniqlang	Fales, Anaksimn, Anaksimandr

56.	Falsafa nimani o'rgatadi?	Kishilarda tafakkur qonunlari va talablari asosida dunyoning yaxlit idrok etilishini
57.	«Falsafa - mustaqil ijtimoiy ong shaklidir» deganda nimani anglashimiz kerak?	dunyoni mantiq qonunlari va kategoriyalari asosida aks etdiruvchi aloxida bilish bosqichi bo'lganligini
58.	Muayyan siyosiy kuchlar manfaatlariga bo'ysundirilgan falsafiy dunyoqarash...	siyosiy ongning bir bosqichiga bo'lib, muayyan siyosiy kuchlarning maqsadlarini ifoda etuvchi mafkuraga aylanadi
59.	Falsafiy tafakkur qanday manfaatlarni ifoda etishi zarur?	umuminsoniy

60.	Qadimgi Sharq falsafasining umumiy xususiyati nimadan iborat?	mifologik, diniy, falsafiy, axloqiy, ilmiy bilimlarning yaxlit holda namoyon bo'lishi
61.	«Dunyoning ibtidosi xam, intixosi xam - suvdir» degan ta'limot qayerda vujudga kelgan?	Misrda
62.	Zardusht ta'limoti va uning vatani qayerda?	Xorazm
63.	Zardusht ta'limoti bo'yicha dunyoning yaratilishi va xarakatida nechta substansiya mavjud deb qaralgan?	2 ta
64.	«Avesto» ta'limoti bo'yicha ijtimoiy taraqqiyot va uning mezonini nima deb olingan?	ezgulikka yo'g'rilgan axloq normalarga rioya qilish darajasi
65.	«Avesto» ta'limoti bo'yicha olamning mohiyati nimada?	dunyo - ezgulik va yovuzlik kuchlarining kurash maydonidir
66.	Falsafa qachon va qayerda fan bulib shakllangan?	er. oldingi VI-V asrlarda, Yunonistonda

67.	Falsafada tabiat «g'oyalari dunyosining» xosilasi degan ta'limot dastlab kim tomonidan asoslangan?	Platon
68.	Qadimgi Yunonistonda materiya xarakati inkor etiladigan falsafiy ta'limotning asoschisi kim?	Zenon
69.	Deizm falsafasining tub mohiyatini anglatuvchi belgi nimadan iborat?	tabiat - «dunyoviy ruh»ning hosilasi ekanligini e'tirof etadi, lekin tabiatning keyingi rivojlanishi tabiiy qonunlar orqali ro'y beradi deb hisoblovchi ta'limot
70.	«Aristotel falsafasining o'ziga xosligi» nimada ko'rinadi?	uning dualizmida
71.	Qadimgi Yunon falsafasida atomlar nazariyasining asoschisi kim?	Levkip, Demokrit
72.	Pifagor ta'limoti bo'yicha «tabiatdan oldin ...»	geometrik shakllar va matematik sonlar mavjud bo'lgan
73.	Platon ta'limotidagi ideal jamiyatda davlatni kimlar boshqarishi zarur deyilgan?	Faylasuflar

74.	Islom dunyosida shakllangan ikkita falsafiy oqim nomlarini aniqlang?	mo'tazaliylar va mutakallimlar
75.	Mo'tazaliylar va ularning haqiqat mezoni nima?	Mantiq
76.	Aristotel falsafasidagi «moddiy olam to'rtta unsur dan tarkib topadi» deganda nimalarni ko'zda tutgan edi?	yer, suv, olov, havo
77.	Mutakallimlar va ularning haqiqat mezoni nima?	e'tiqod
78.	«Ikki haqiqat» ta'limoti qaysi haqiqatlarni nazarda tutgan?	diniy va ilmiy haqiqatni
79.	Muso al-Xorazmiyning jahon fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?	O'nlik sanoq sistemasi, arifmetik ilm amallari, algoritmlar nazariyasi va Algebra fanining asoschisi
80.	Al-Xorazmiyning jo'g'rofiya faniga oid asari qanday nomlangan?	«Kitob al-suratil ard»
81.	Abu Rayxon Beruniyning yozgan asarlarini aniqlang?	«Hindiston», «Osor al-boqiya», «Geodeziya»
82.	Beruniy gnoseologiyada qaysi pozitsiyani yoqlagan?	sensualizmni

83.	Beruniyning falsafiy dunyoqarashini qaysi oqimga mos deb tushunish mumkin?	deizm
84.	Beruniy fan bilan din o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday bo'lishi kerak deb xisoblaydi?	din bilan fan bir-biriga halaqit bermasligi kerak deb hisoblaydi
85.	Beruniy bilishda haqiqatning mezoni deb nimani tushungan?	hissiy bilish
86.	Ibn Sinoning falsafiy asarlarini aniqlang?	«Donishnoma», «Kitob ash-shifo», «Tib qonunlari»
87.	Ibn Sino bilishda qanday omilning ustuvorligini tan oladi?	Bilishda aqlning roli hal qiluvchi deb tushunadi
88.	Abu Nasr Forobiy tasnifi bo'yicha ilmlar 5 ta guruhga bo'linadi va shu guruhlarni aniqlang?	til, mantiq, matematika, tabiiy va ilohiy, siyosat
89.	Forobiyning o'zbek tilida chop etilgan kitobining nomi qanday ataladi?	«Fozil odamlar shahri»
90.	Mahmud Qoshg'ariyning mashhur asarining nomi	«Devoni lug'otit turk»

91.	Xo'ja Ahmad Yassaviy tariqatining mohiyati nimada?	dunyoning o'tkinchi ekanligini bayon qilib, kishilarni insof-diyonatli bo'lishga chaqiradi
92.	Tasavvuf ta'limotining Markaziy Osiyodagi tariqatlari qaysilari?	Naqshbandiya, Yassaviya, Kubroviya
93.	Mirzo Ulug'bekning tarixiy ahamiyatga ega asarlari qanday nomlanadi?	«Tarixi arba' ulus», «Ziji Ko'ragoniy»
94.	A.Navoiy ijtimoiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch deb nimani tushungan?	ma'rifatli shoh yoki buyuk kishilar
95.	Hozirgi paytda g'arb mamlakatlarida keng tarqalgan Katolik cherkovining g'oyaviy asosi hisoblangan ta'limot nima deb ataladi?	neotomizm
96.	XIX asr oxiri XX asr birinchi choragida keng quloq yoygan jadidlar harakatining tub maqsadi nima bo'lgan?	maorifda ovro'pocha o'qitish uslubiga o'tish orqali xalqni tez va keng qatlamlarini ma'rifatli qilish
97.	Davrimizning global muammolari va insoniyatning kelajagi masalasini dastlab kimlar ko'tarib chiqqan?	Rim klubi a'zolari (A.Pechchei va boshqalar)

98.	Falsafaning mustaqil ijtimoiy ong shakli bo‘lib shakllanishida hal qiluvchi omil nima?	uning dunyoqarash xarakteri
99.	Eng qadimgi ilk dunyoqarash shakli?	diniy-mifologik
100.	Inson bilishining umumiy qonuniyatlarini falsafaning qaysi qismi o‘rganadi?	gnoseologiya
101.	Falsafaning nazariy asoslarini nima tashkil etadi?	ontologiya
102.	Metodologiya nima?	bilish uslublari to‘g‘risida ta’limot
103.	Bilishning asoslari va maqsadi nima?	kishilarning amaliy faoliyati
104.	Borliq tushunchasining falsafiy mazmuni nima?	ob’ektiv va sub’ektiv reallikning yaxlitligi
105.	Materiyaning falsafiy tushunchasi va uning asosiy xossasi?	uning moddiyligida
106.	Makrodunyo hodisalari uchun fazo necha o‘lchovlik?	3 o‘lchovlik
107.	Nisbiylik nazariyasi bo‘yicha fazoning to‘rtinchi o‘lchovi nima?	vaqt
108.	Vaqtning nechta o‘lchovi bor?	1 o‘lchovlik

109.	Dekart koordinatalar sistemasi necha o'lchovlik fazolarni aniqlaydi?	3 o'lchovlik
110.	Mexanik harakat va uning asosiy belgisi	jismlarning fazoda oddiy o'rin almashinishi
111.	Taraqqiyot nima?	pastdan yuqoriga, oddiydan murakkablikka tomon yo'naltirilgan harakat
112.	Eng murakkab harakat shakli	ijtimoiy
113.	In'ikos nima?	materiyaniig umumiy xossasi
114.	Kishining o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida nima belgilovchi rol o'ynaydi?	o'z-o'zini anglash
115.	Tilning falsafiy ta'rifi va uning eng asosiy belgisi deganda...	kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi
116.	Qonun nima?	narsa va hodisalar o'rtasidagi buzib bo'lmas darajada o'ta mustahkam aloqadorliklar

117.	Falsafiy kategoriyalar deb nimaga aytiladi?	mazmunan kengaytirib bo'lmaydigan eng umumiy tushunchalar
118.	Falsafada juft kategoriyalar nimani aks etdiradi?	narsa va hodisalar o'rtasidagi qonun darajasiga ko'tarila olmagan eng muhim aloqadorliklarni
119.	Faqat sababiy bog'lanishlar orqali dunyoning falsafiy manzarasini yoritib beruvchi oqim nima deb nomlanadi?	determinizm
120.	Faqat zaruratlikni e'tirof etib, tasodiflikni inkor etuvchi falsafiy ta'limot qanday nomlanadi?	fatalizm
121.	Mazmun deb nimaga aytiladi?	predmet yoki hodisani tashkil etuvchi barcha belgilar yig'indisiga

122.	Mohiyat deb nimaga aytiladi?	predmet yoki hodisalarning aynan shu predmet yoki xodisa bo'lishi uchun zarur bo'lgan eng muhim belgilar yig'indisiga
123.	Bilishning «ob'ekti» deganda ...	ob'ektiv va sub'ektiv reallikning sub'ektning bilish faoliyati doirasiga kiruvchi predmet va hodisalar majmuasi tushuniladi
124.	Agar bilish ob'ekti tabiiy hodisalar bo'lganda, biluvchi «sub'ekt»...	umuminsoniyat manfaatlarini ifoda etadi
125.	Ilmiy bilishning tub mohiyatini o'zida mujassamlash-tiruvchi asosiy belgi nima?	tajriba
126.	Ilmiy bilimlar oddiy bilimlardan nimasi bilan farq qiladi?	bilimlarning muayyan mantiq va tajribalar asosida to'plangan bilimlarning sistemalashtirilishi bilan
127.	Agnostitsizm nima?	dunyoni bilishni inkor etuvchi ta'limot

128.	Ratsionalizm ta'limotining tub mohiyati nima?	bilishda aqlning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblovchi ta'limot
129.	Sensualizm va uning mohiyati nima?	bilishda sezgi a'zolarining hal qiluvchi ahamiyatini e'tirof etuvchi ta'limot
130.	Absolyut haqiqat nima?	predmet va hodisalar to'g'risidagi fan-texnika taraqqiyotining keyingi bosqichlarida inkor etish mumkin bo'lmagan bilimlar
131.	Nisbiy haqiqat nima?	ijtimoiy taraqqiyotning har bir bosqichida doimo yangilanib turuvchi bilimlar
132.	Ijtimoiy muhitda tabiiy qonunlar hukm suradi deb hisoblaydigan falsafiy oqim?	naturfalsafa
133.	Jamiyatning tabiatdan farq qilishiga sabab bo'luvchi eng asosiy omil nimada?	ijtimoiy qonunlar asosida rivojlanishid

134.	Jamiyatning ijtimoiy strukturasi aniqlang?	sotsial sinflar, ijtimoiy guruhlar
135.	Aksiologiya nima?	falsafaning qadriyatlar sohasini o'rganuvchi sohasi
136.	Huquq nima?	Hukmron siyosiy kuchlarning qonun darajasiga ko'tarilgan irodasi
137.	Huquqiy davlat nima?	qonun ustuvorligi ta'minlangan jamiyat
138.	Jamiyat taraqqiyotining qaysi bosqichida kishilarda axloq normalari shakllangan?	kishilik jamiyatining ilk bosqichlarida
139.	Axloqiy ong qachon paydo bo'lgan?	aqliy va jismoniy mehnat ajralib chiqqandan so'ng
140.	«Madaniyat» tushunchasi nimani anglatadi?	kishilar tomonidan ishlab chiqilgan, yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni

141.	Kishilarning ma'lum hudud va davrdagi moddiy hamda ma'naviy madaniyatini to'laroq aks etdiruvchi falsafiy tushunchani toping	sivilizatsiya
142.	«Madaniyat» tushunchasining eng muhim belgilaridan birini toping?	uning ikkiyoqlamaligi, ikki xil sifatga ega bo'lishi
143.	XVII-XVIII asr fransuz mutafakkirlari ijtimoiy taraqqiyot mezoni deb nimani tushunganlar?	ilm - ma'rifat
144.	Insonning faoliyat olib borish doirasini qanday ilmiy-falsafiy tushuncha orqali ifoda etiladi?	noosfera
145.	Falsafa» so'zining lug'aviy ma'nosi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang?	Yunoncha, phileo – sevaman va sophia – donolik
146.	Ob'ektiv dunyoga va insonning undagi o'rniga, odamzotning o'zini qurshagan borliqqa va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatiga nisbatan yondashuvlar tizimi, bu - ...	Dunyoqarash
147.	Dinning asosiy funksiyalari qaysi javobda to'g'ri va to'liq ko'rsatilgan?	Dunyoqarashni shakllantirish, kommunikativ, tartibga solish, kompensatorlik funksiyalari
148.	Falsafiy tafakkur Qadimgi Sharq va G'arbda ijtimoiy ongning dastlabki shakli sifatida qanday ko'rinishda vujudga kelgan?	Mifologiya

149.	Mifologiyada dastlab qanday masalalar qo'yilgan?	Dunyo qanday vujudga kelgan va u qanday rivojlanadi? Hayot va o'lim nima?
150.	Antik davrda falsafa rivojlangan shaharlarni belgilang?	Ioniya, Sitsiliya, Afina
151.	Sharq va G'arb falsafasi nimaga qarab rivojlangan ?	Umuminsoniy qadriyatlarga
152.	Markaziy Osiyoda ma'naviy-falsafiy merosning eng qadimgisi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	Avesto
153.	Pozitivizmning asoschisi kim?	O.Kont
154.	Falsafa tarixidagi mashhur «Ayni bir daryoga ikki marta tushib bo'lmaydi» iborasi muallifi qaysi javobda to'g'ri berilgan?	Geraklit
155.	Tabiiy jarayonlar va hodisalar holatlarining har qanday o'zgarishi bu - ...	Harakat
156.	Muhokamalardagi ziddiyat tufayli hal etib bo'lmaydigan yoki hal etilishi mushkul bo'lgan holat, mantiqiy qiyinchilik, muammo qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	Aporiya
157.	Quyidagi fikr muallifi kim: «Inson barcha narsalar mezonidir: u mavjud narsalarning mavjudligini, yo'q narsalarning esa yo'qligini belgilaydi»?	Protogor
158.	Olovni oqil va olijanob, suvni – tuban asos deb hisoblagan faylasufni toping?	Geraklit
159.	Ong va ong osti hodisalarini ilk bor mufassal o'rgangan faylasuf – psixoanalitik kim?	Z.Freyd
160.	Dunyo bilan o'zaro aloqa qilish tajribisini umumlashtiruvchi hodisa bu - ...	Fikrlash

161.	Borliqning umumiy, muhim tomonlari, xossalari, aloqalari va munosabatlari haqida fikrlash uchun qo'llaniladigan o'ta keng tushunchalar majmui, bu - ...	Falsafiy kategoriyalar
162.	Falsafiy kategoriyalar va formal mantiq kategoriyalari o'rtasida farqning yuzaga kelishiga qaysi faylasufning ijodi tasir qilgan?	Aristotel
163.	I.Kant kategoriyalarning necha turini farqlaydi va ular qaysilar?	Uch, hissiyot, idrok va aql
164.	Bilish haqidagi ta'limot bu - ...?	Gnoselogiya
165.	Ilmiy bilish qaysi tushuncha bilan nomlanadi ?	Epistemologiya
166.	O'zini qurshagan dunyodagi narsalar va hodisalarni sezgilar orqali idrok etishga nima deb ataladi?	Persepsiya
167.	Borliqni anglashning g'oyalarda ifodalash nima deyiladi?	Appersepsiya
168.	Dunyoqarashning tuzilishi qanday?	Dunyoni sezish, idrok etish, tushunish
169.	Dunyoni sezish bu?	Bu o'zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etish
170.	Faqat insongaxos xususiyatni aniqlang?	Dunyoni tushunish
171.	Mif atamasi qanday ma'nolarni anglatadi?	Rivoyat, afsona
172.	Quyidagilarning qaysi biri dinning funksiyasi emas?	Farovonlik funksiyasi
173.	Antik falsafaning asosiy savoli?	Dunyo nimadan yaratilgan?
174.	Dunyoqarashning qaysi shakllari e'tiqod va tuyg'ularga tayangan?	Mifologik va diniy dunyoqarash
175.	Falsafiy dunyoqarash dunyoni nimalarga tayangan holda tushuntiradi?	Aql va bilimlarda

176.	Monoteizm bu?	Yakkaxudolik
177.	Umumiy ma'noda falsafa fani nimani o'rganadi?	Tabiat, jamiyat va inson
178.	“Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” g‘oyasi kim tomonidan ilgari surilgan?	Zardusht
179.	Milet maktab asoschisi kim?	Fales
180.	Anaksimien olam asosiga nimni qo‘ygan?	Havoni
181.	O‘rtaasrlar falsafasigaxos xususiyatni belgilang?	Teotsentrizm
182.	«Ontologiya» atamasi qaysi so‘zdan olingan?	Yunoncha «ontos» - borliq, «logos» - so‘z, ta’limot.
183.	Borliq haqidagi tasavvurlar bizgacha qanday yetib kelgan?	Afsonalar va miflar orqali
184.	«Hamma narsa sonidir» kimning fikri?	Pifagor
185.	Sharq mutafakkirlaridan kim borliq muammosini hal qilishda «Vujudi vojib» va «Vujudi mumkin» ning o‘zaro nisbatiga murojaat qiladi?	Forobiy
186.	Ibn Sino fikricha, «Vujudi vojib» qanday talqin qilingan?	Allohdir
187.	Ontologiya tushunchasini falsafada birinchi bor kim qo‘llagan?	X. Volf
188.	Orqaga qaytmaslik va muayyan yo‘nalishga egalik xos bo‘lgan harakat tipi nima deb ataladi?	Progress (rivojlanish)
189.	«Xaos» nima?	Tartibsizlik

190.	Quyida keltirilgan ta'limotlardan qaysi birida tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, atrof muhitning ekologik tozaliliga rioya qilish g'oyasi o'z aksini topgan?	Zardushtiylik
191.	Jamiyat va tabiatning o'zaroaloqasida insonning oqilona faoliyati eng muhim omilga aylanadigan holatga erishishi qanday ataladi?	Noosfera
192.	«Noosfera» bu — ?	Aql-idrok sohasi
193.	Gumanizm so'zining ma'nosi?	Insonparvarlik
194.	“Dialektika” so'zining ma'nosini toping	yun. Dialektika – suhbat qurish san'ati
195.	Ikki yoki bir nechta suhbat – ...?	«Dialog»
196.	Optimizm nima ?	Dunyoni bilish mumkinligini ta'kidlaydi
197.	Dialektikaning tarixiy shakllarini sanang	Stixiyali, idealistik, materialistik
198.	Mif atamasi qanday ma'nolarni anglatadi?	Rivoyat, afsona
199.	Olam asosiga apeyronni qo'ygan G'arb faylasufi kim?	Anaksimandr
200.	F.Bekon, T.Gobbs, J.Lokk, R.Dekart, B.Spinoza va Leybnis qaysi asrga yashab ijod etgan?	XVII asr
201.	Sezgi a'zolari orqali olingan bilim qanday bilim hisoblanadi?	Hissiy
202.	Taraqqiyotning o'zbek modeli nechta tamoildan iborat?	5ta
203.	Inson haqidagi ta'limot qanday nomlanadi?	antropologiya
204.	«O'zligingni bil» degan hikmatli so'z qaysi mutafakkir qalamiga mansub?	Suqrot

205.	Insonni faoliyatga undovchi sabablarni ko'rsating?	Ehtiyojlar
206.	Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalari nechanchi asrlardan boshlab kuzatilgan?	XV asr oxirlaridan
207.	Nechanchi yildan dunyo informatsion jihatdan uzil-kesil tutashgan?	1991-yildan
208.	BMT qachon tashkil topgan?	1945 yil
209.	Global muammorlar qanday turlari mavjud?	Milliy, mintavaviy, global
210.	Aholini o'sishi bilan bog'liq global muammo qanday nomlanadi?	Demografik
211.	BMT 72 sessiyasi qachon va qaerda o'tkazildi?	2017 yil AQSh
212.	Yangi davrda E.Torricelli havo bosimi mavjudligini qanday yo'l bilan aniqladi?	Eksperimental
213.	Qon aylanishini kim kashf etdi?	V.Garvey
214.	Ijtimoiy fanlarda tabiiy huquq nazariyasi Angliyada kim tomonidan ishlab chiqildi?	T.Gobbs
215.	Yangi davrda fanlarning rivojlanish jarayonida falsafada qanday ajralishlar sodir bo'ldi?	Sxolastika va din

216.	Miqdoriy ifodalash, sezish yoki kuzatish mumkin bo'lmagan, massasi ham, energiyasi ham yo'q, moddiy ob'ektlar kabi muayyan shakl-shamoyilga ham ega bo'lmagan falsafiy kategoriya, bu –	Ong
217.	Olovni oqil va olijanob, suvni – tuban asos deb hisoblagan faylasufni toping?	Geraklit
218.	Borliq hodisalari va unda hukm suruvchi munosabatlarning muhim, tipik mazmunini o'zida aks ettiradigan keng tushuncha bu - ...	Kategoriya
219.	Qaysi qatorda empirizm vakillari berilgan?	Bekon, Lokk, Gobbs
220.	Materiyaning yashash shakli deganda nima tushuniladi?	materiyaning vaqt va fazodagina mavjud bo'lishida
221.	Buyuk nemis klassik faylasufi Gegel ijtimoiy taraqqiyotni xarakatlaniruvchi kuch deb nima tushungan?	ilg'or falsafiy ta'limot
222.	Buyuk nemis klassik faylasufi L.Feyerbax ta'limoti bo'yicha ijtimoiy taraqqiyot mezoni deb nima tushunilgan?	diniy ong

223.	«Davlat - xamma narsa, shaxs - hech narsa» tamoyiliga asoslanuvchi ta'limot.	nigilizm
224.	Shaxs deb nimaga aytiladi?	shaxs - barcha ijtimoiy munosabatlar majmuasi
225.	Quyidagilardan qaysi biri dialektik bilimlar sohasiga tegishli?	Rivojlanish va o'zgarishlar haqidagi ta'limot
226.	Tafakkur qonunlari va usullari haqidagi fan bu?	Mantiq
227.	Materialistlar deb qaysi toifadagi kishilarni aytish mumkin?	Olamni azaldan, moddiy deb, ong bu materiyaning mahsuli deyuvchilar
228.	Pratogor, Suqrot, va Platon aytganidek falsafa bu - ... ?	Ishontirish emas, to'g'ri fikrlash san'atidir
229.	“Umumiy nisbiylik nazariyasi” ta'limotining asoschisi kim?	Eynshteyn
230.	Fanning mohiyati bu - ...?	Borliq to'g'risidagi ob'ektiv bilimlarni aniqlash va tizimlashtirish

231.	Qadimgi hind falsafiy maktablarining ikki guruhi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	Astika va Nastika
232.	Dunyo bo'linmas bo'lakchalar (atomlar)dan tashkil topgan, degan ta'limotni ilgari surgan yunon faylasufi kim?	Demokrit
233.	Qaysi alloma "Sharq Arastusi" – "Muallim us-soniy" degan yuksak nomga sazovor bo'lgan?	Abu Nasr Forobiy
234.	So'fizmda tabiat va Alloh qanday taqiln etiladi?	Alloh va tabiatni uzviy deb qaraydi
235.	Insonning biologik evolyusiya mahsuli sifatidagi talqin etuvchi falsafiy ta'limot bu – ...	Evolyusion epistemologiya
236.	Falsafaning qaysi sohasida borliq va yo'qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalar o'rganiladi?	Ontologiyada
237.	Har qanday jismning ajralmas xususiyati nima deb ataladi?	Atribut
238.	Falsafa tarixida dualizmning yorqin vakili sifatida o'rin olgan faylasuf kim?	R. Dekart
239.	Dunyoning negizida ikkita emas balki undan ko'proq mohiyat borligini tan oluvchi ta'limot?	Plyuralizm

240.	“Men fikrlayapman demak, demak men mavjudman” iborasi muallifi kim?	Dekart
241.	Inson va kishilik jamiyatining shakllanishi bu –?	Antroposotsiogenez
242.	Atomlar va molekulalarning harakati qanday harakat hisoblanadi?	Ximiyaviy
243.	Makon va vaqtning konsepsiyalarini ko‘rsating?	Dinamik, statik
244.	Jon haqidagi ta’limotni birinchi bo‘lib kim yaratgan?	Platon
245.	«O‘zingni bilsang, olamni bilasan» degan ibora qaysi muallif qalamiga mansub?	Suqrot
246.	«Atribut» deganda nimani tushunasiz?	Har qanday jismning ajralmas xususiyati
247.	Predmetning bir-birini istisno etuvchi va bir-birini nazarda tutuvchi tomonlar nima deb ataladi?	Qarama-qarshiliklar
248.	Imkoniyatning qanday turlari bor?	Real va formal, abstrakt va muayyan

249.	Bilim bu - ...?	Haqiqatga mos keladigan va asoslangan ishonchdir
250.	Transsendental so‘zining lug‘aviy ma‘nosi?	lotincha «transcendentalism» - chegaraga sig‘maydigan
251.	Sub‘ektning bilish faoliyati qaratilgan narsa yoki hodisa bu...?	Ob‘ekt
252.	“Metafizika” so‘zining ma‘nosi?	Yunoncha, “fizikadan keyin”
253.	Dialog nima?	Savol- javob metodi
254.	“Kashf etaman, topaman” ma‘nosini anglatuvchi so‘z...	Evrastika
255.	«Obod qishloq» dasturini amalga oshirishga qancha mablag‘ ajratilgan?	3 040,8 milliard so‘m
256.	«Obod mahalla» dasturini amalga oshirishga qancha mablag‘ ajratilgan?	3 054,3 milliard so‘m
257.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yilga qanday nom berish taklif etildi?	Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili

258.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi ma'ruzasida investisiyalarga qanday baho berdi?	Investisiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi
259.	O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2018 yilda nechta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi?	18 ta
260.	Bugungi kunda O'zbekiston aholisining necha foizi shaharlarda yashaydi?	50,6 foizi
261.	Hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotganishchi va xizmatchilarning necha foizini xotin-qizlar tashkil etadi?	50 foizini
262.	Yoshlarni tarbiyalashdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad nima?	Yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish
263.	Yoshlarga oid davlat siyosatining maqsadi va qoidalari qaysi hujjatda o'z aksini topgan?	«O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi qonunda
264.	«El-yurt umidi» jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» Prezident farmoni qachon qabul qilindi?	2018 yil 25 sentyabrda

265.	Ta'lim tizimidagi innovatsion va kreativ yondashuvlar asosida tashkil etilgananiq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarga kimlarning nomi berilgan?	Muhammad Xorazmiy va Mirzo Ulug'bek
266.	O'zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida qurilish sohasini innovasion rivojlanitirish dasturi nechanchi yilgacha ishlab chiqilishi bayon etilgan?	2030 yilgacha
267.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlariga ko'ra, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha O'zbekiston 187 mamlakat o'rtasida nechanchi o'rindan joy olgan?	134-o'rinda
268.	Harakatlar strategiyasiga muvofiq, 2017–2021 yillarda umumiy qiymati qancha miqdordagi investisiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilgan?	40 milliard AQsh dollari miqdoridagi 649 ta investisiya loyihasi

269.	«Harakatlar strategiyasiga muvofiq, ijtimoiy sohani rivojlantirish» deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishi bo'yicha hududlarni har tomonlama rivojlantirish hisobiga qancha ishchi o'rni tashkil etish nazarda tutilgan?	256,4 ming ish o'rni
270.	«Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatdaamalga oshirilayotgan keng qamrovli faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimchachora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident qarori (2018 yil 5 iyun) bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor lavozimi o'rniga qanday lavozim joriy etildi?	Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor lavozimi
271.	Har qanday qonundan ko'zlangan asosiy maqsad nimadan iborat bo'ladi?	Inson huquqlarining asosiy prinsiplarini ro'yobga chiqarishdan iborat
272.	Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar qanday vazifalarni bajaruvchi demokratik institut sifatida namoyon bo'lishlari maqsadga muvofiq?	xalq bilan hokimiyatni bog'lovchi bo'g'in sifatida

273.	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qachondan boshlab ikki palatali parlament sifatida faoliyat yuritib kelmoqda?	2005 yildan boshlab
274.	Prezident Shavkat Mirziyoev davlat boshqaruvi to‘g‘risida mutlaqo yangi tizim yaratish uchun qanday qonunni ishlab chiqish taklifini kiritdi?	Davlat xizmati to‘g‘risida
275.	Advokatura nima uchun xizmat qiladi?	Fuqarolarga, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun
276.	O‘zbekiston Konstitusiyasiga qaysi organ sharh berishi mumkin?	konstitusiyaviy sud
277.	Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasiga qanday taklif bilan chiqdi?	«Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyusiyani qabul qilish

278.	Shahrisabzda 73 davlat vakillari ishtirokida birinchi Maqom san'ati xalqaro forumi bo'lib o'tdi	2018 yil 6–10 sentyabr
279.	Inson omiliga e'tibor-.....?	Kelajakka e'tibor
280.	«Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyusiyani qabul qilish bo'yicha Sh.M.Mirziyoevning taklifi qayerda bayon etilgan edi ?	BMT Bosh Assambleyasida
281.	Formal mantiq nimani o'rganadi?	* to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini
282.	Mantiq ilmini ob'ektini nima tashkil etadi?	* Tafakkur
283.	Hissiy bilish nechta shaklga ega?	* 3 ta.
284. predmetning birorta tashqi xususiyatini aks ettiruvchi yaqqol obrazdir.	*Sezgi.

285.	... fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog'lanish usuli, uning strukturasi.	* Tafakkur shakli.
286.	SHarqda kim birinchilardan bo'lib mantiq ilmi bilan shug'ullangan?	* Al-Kindiy
287.	Qadimgi Xindistonda mantiq ilmi rivoji nechta davrni o'z ichiga oladi?	*3 ta.
288.	Qaysi qonunga asosan ma'lum bir predmet haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni vaqtda o'z-o'ziga tengdir?.	* Ayniyat.
289.	Tafakkurning asosiy shakllarini aniqlang?	* Xulosa. xukm. tushuncha
290.	Tushuncha hosil qilishning qaysi usuli yordamida ajratilgan qismlar, tomonlarni fikran birlashtirilib, predmet butun holga keltiriladi.	* Sinrez
291.	Qaysi qonun ayni bir hodisa haqida aytilgan ikki o'zaro bir-birini istisno qiluvchi fikr bir vaqtda va bir hil nisbatda birdaniga chin bo'lishi mumkin emasligini, hech bo'lmaganda ulardan biri albatta xato bo'lishini ifodalaydi.	* Nozidlik

292.	Qaysi alloma mantiqni «ma'lum bilimlardan noma'lum bilimlarni aniqlovchi», «chin fikrni xato fikrdan ajratuvchi» fan sifatida ta'riflaydi.	*Aristotelъ
293.	«Logika» atamasi yunoncha «Logos» so'zidan olingan bo'lib u qanday ma'noni anglatadi.	.* Fikr, so'z, aql, qonuniyat
294.	Tushunchalarda nimalar aks ettirilgan?	*predmetning umumiy va muhim belgilari
295.	Tushunchaning mazmunini nimalar tashkil etadi?	*predmetning muhim va umumiy belgilari haqidagi axborotlar
296.	Tushunchaning hajmida nima ifoda qilinadi?	* tushunchada aks ettirilgan predmetlar yig'indisi
297.	Quyidagilarning qaysi biri yakka tushuncha?	* quyosh sistemasi
298.	“Laganbardor” tushunchasi qaysi turga mansub?	konkret tushuncha*

299.	Quyidagilardan qaysi biri birga bo'ysunish munosabatidagi tushunchalar hisoblanadi?	* o'quv adabiyoti - darslik - o'quv qo'llanmasi
300.	Hukmning uch asosiy elementi nima?	* sub'ekt /S/, predikat /R/ ga bog'lovchi
301.	Quyidagi hukmlarning qaysi biri chin?	*barcha qonunlar ob'ektiv mazmunga egadir;
302.	Zidlik munosabatida bo'lgan har ikala hukm chin bo'lmasligi mumkinmi?	* ba'zi hollarda mumkin;
303.	“Xarakat nazariya va amaliyotning jonli birligidir” (Arastu).	* murakkab hukm
304.	Xulosa chiqarishda asoslar soni qancha bo'lishi kerak?	*1 ta va undan ortiq
305.	“Said odobli, demak u odobsiz emas	* aylantirish asosida xulosa chiqarish

306.	Deduktiv xulosa chiqarishda fikrning xarakat yo‘nalishi qanday?	* umumiylikdan juz’iylikka tomon
307.	Sillogizmda ikkita juz’iy hukmdan qanday xulosa chiqadi?	* juz’iy hukm tarzidagi xulosa
308.	. Sillogizmda ikkita inkor hukmdan qanday xulosa chiqadi?	* to‘g‘ri xulosa chiqmaydi
309.	Har bir to‘g‘ri qurilgan sillogizm nechta terminga ega bo‘lishi lozim?	* 3 ta va undan ortiq
310.	Analogiya Fan va texnikada modellashtirish uchun mantiqiy asos bo‘la oladimi?	* bo‘la oladi;
311.	Isbotlash va rad etishning markaziy elementi nima?	tezis;
312.	O‘rganilayotgan predmet haqida bildirilgan taxminiy, asoslanmagan fikr nima?	*faraz

313.	O'rganilayotgan predmet haqida bir vaqtning o'zida bir necha farazlarning ilgari surish mumkinmi?	* mumkin
314.	Muammo nima?	* echish usuli noma'lum bo'lgan, yangicha yondashishni talab qiladigan masala
315.	Ilmiy nazariya nima?	* predmet (predmetlar sinfi) haqidagi ilmiy tushunchalar, qonunlar, printsiplar sistemasi
316.	Axloq deganda nimani tushunasiz?	* Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri, insonning yurish-turish qoidalari va hulq-atvori normalari
317.	. Axloq ko'proq qaysi fanlar bilan bog'liq?	*Pedagogika va huquqshunoslik fanlari bilan
318.	Axloqning tarkibiy tuzilishini izohlang?	* Axloqiy ong, axloqiy normalar, axloqiy faoliyat va axloqiy munosabatlar
319.	Axloqning ma'naviy manbalari nimadan iborat?	* Axloq ilm-ma'rifat orqali shakllanadi, kishining hayot mazmuni va hayot maqsadini qanday tushunishiga bog'liq

320.	Axloqiy norma -qoidalar qachon paydo bo'lgan?	* Inson jamiyati yuzaga kelishi bilan
321.	Eng qadimgi axloqiy ta'limotlar qayerda yuzaga kelgan?	*Misrda, Hindiston va Xitoy mamlakatlarida
322.	Eng qadimgi xalqlarning o'z Vatani va o'z xalqiga muhabbat fazilatlarini ifodalaydigan og'zaki ijodiyot namunalarini aniqlang	* To'maris va SHiroq afsonalari
323.	«Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodtaga erishuv yo'llari haqida» risolalarining muallifini aniqlang.	* Al Farobiy
324.	Eng qadimgi taniqli axloqshunos mutafakkirlarni aniqlang.	* Aristotelъ, Suqrot, Epikur
325.	«Axloq - bu baxt-saodatga erishish yo'llarini o'rgatuvchi fandır» degan fikrning muallifini aniqlang?	* Epikur
326.	Axloqning asosida shaxsiy manfaat yotadi - degan fikrni kim birinchi bor ilgari surgan?	* Gольbax, Gelъvetsiy
327.	«Sevgi haqida risola» nomli kitobning muallifi kim?	* Ibn Sino
328.	Axloqning asosida sevgi va muhabbat yotadi - degan fikrning muallifini aniqlang.	* Feyerbax
329.	«Qutadg'u bilik» axloqiy-didaktik risolasini kim yozgan?	* YUsuf Xos Xojib
330.	«Turkiy guliston yoxud axloq» asarining muallifini aniqlang	* Abdulla Avloniy
331.	Inson barkamolligi va insonparvarlik g'oyalarini o'z dunyoqarashining asosi qilib olgan buyuk alloma kim?	* Navoiy
332.	«Qobusnoma» didaktik risolani kim yozgan?	*Kaykovus.

333.	«Mahbub ul qulub» axloqiy risolaning muallifini aniqlang.	* Navoiy
334.	Axloqiy erkinlik deganda nimani tushunasiz?	* Axloqiy qonun-qoidalarga buyruqsiz, ichki ehtiyoj bilan rioya qilishni
335.	Oddiy axloq normalarini aniqlang.	* Halollik, haqiqatgo'ylik, sahiylik, mehmondo'stlik, xushmuomalalik, kamtarlik va h.k
336.	Axloq qanday kuchga tayanadi.	* Jamoatchilik fikriga
337.	Axloq va san'atning bir-biriga ta'sirini aniqlang.	* San'at odamni yuksak axloqiy ruxda tarbiyalaydi
338.	Axloq va dinning bir-biriga ta'sirini aniqlang.	* Diniy mafkura axloqqa kuchli ta'sir ko'rsatadi
339.	Axloq bilan tarbiyaning bir-biriga munosabatlarini aniqlang	* Axloq tarbiyaning nazariy asosi

340.	Vatanparvarlik tuygʻusini qanday tushunasiz?	* Kishining oʻz ona tiliga, tarixiga va madaniyatiga, xalqi va millatiga boʻlgan sevgisi, ularni eʼzozlashi
341.	Insonparvarlik tuygʻusini qanday tushunasiz?	* Insonlarni sevish, yordamga muxtoj kishiga mehr-shavqat qilib yordam bera olishi, rostgoʻy, adolatparvar, axloqan barkamol insonparvar degan nomga sazovor boʻla olishi
342.	Mehr-oqibat deganda nimani tushunasiz?	* Insonning oʻz kasbiga, mehnatiga, ota-onasiga va qarindosh-urugʻlariga, farzandlariga va yordamga muhtoj barcha kishilarga sidqidildan qilgan munosabati va yordami.
343.	YAxshilik va yomonlik kategoriyalarini qanday izohlay olasiz?	* YAxshilik har bir insonga berilgan buyuk fazilat, axloqan barkamollik negizidir
344.	Vijdon kategoriyasini oʻziga xos xususiyati nima?	* Vijdon - bu oʻz-oʻzini nazorat qilish.

345.	Burch kategoriyasini qanday tushunasiz?	* Burch - bu majburiyat.
346.	Baxt nima?	* Baxt - bu shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni qondirilishi.
347.	Or-nomus nima?	* Or-nomus - bu axloqiy hatti-xarakatlar, his-tuyg'ular, munosabatlar
348.	Adolat nima?	* Adolat - axloqiy norma va qoidalar asosida hayot kechirish.
349.	Sizning yashashdan maqsadingiz nima?	* O'z va o'zgalar manfaatini uyg'unlashtirib, hayotda yaxshi nom qoldirish
350.	Hayot mazmunini qanday tushunasiz?	* Axloqiy barkamollikka erishish, mehnat qilish, yangilik yaratish va baxtiyor yashash

351.	Muomala madaniyati deganda nimani tushunasiz?	* Hamma bilan xushmuomalada bo'lish va o'z fikr-mulohazalarini boshqalarga o'tkaza olish
352.	Axloqiy tarbiya qaerdan boshlanadi?	* Eng avvalo oiladan, so'ngra bog'cha va maktabda davom qilmog'i lozim
353.	Farzandlik burchi nima?	* Ota-onani, xalqini, Vatanni sevish, hurmat qilish va ular uchun samimiy xizmat qilish
354.	YUksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan kishilarni siz qanday tasavvur qilasiz?	* Or-nomusli, vijdonli, xalol, mehnatsevar, o'z xalqi va Vatanini sevmog'
355.	Halollik, poklik nima?	* Vijdonan sof, aqlan etuk, so'z bilan ishi bir bo'lish
356.	Axloqning tabiiy manbaalari nimalardan iborat?	* Axloq kishining aql-zakovatiga bog'liq
357.	Axloqning ma'naviy manbalari nimadan iborat?	* Axloq ilm-ma'rifat orqali shakllanadi, kishining hayot mazmuni va hayot maqsadini qanday tushunishiga bog'liq

358.	Tarixda «estetika» atamasini kim tatbiq qilgan?	* Baumgarten
359.	Faylasuflardan qaysi biri san'at odamning hayvonlarga taqlid qilishi negizida vujudga kelgan, deb hisoblagan?	* Demokrit
360.	Voqelikdagi va san'atdagi estetiklik haqidagi g'oyalar, fikrlar, hukmlar yig'indisi nima deb ataladi?	* estetik qarashlar
361.	Hayotning estetik mukammalligi va mukammal inson haqidagi tasavvur nimadan iborat?	* estetik ideal
362.	Estetika tarixida kim go'zallikni uyg'unlik, yaxlitlik, mukammallik sifatida tushungan?	*Aristotelъ
363.	Qanday yo'nalish vakillari go'zallikning ma'naviylik bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlashgan?	*Ma'rifatchilik
364.	Odamning maishiy zaruriyatlariga xizmat qiladigan va ayni bir vaqtda uning estetik ehtiyojlarini qondiradigan san'at turi qanday ataladi?	* Dizayn

365.	Qaysi san'at turlari vaqtinchalik va dinamik turlarga kiradi?	* Adabiyot-musiqa
366.	Qaysi turlar san'atning makonli turlariga kiradi?	* Me'morchilik va badiiy suratlashlik
367.	Qaysi turlar san'atning sintetik turlariga kiradi?	* Teatr, kino, xoreografiya, estrada
368.	«Estetika» iborasining ma'nosi:	* ҳис қилиш, ҳис қилинувчи, ҳис этиладиган
369.	Baumgarten nafosatshunoslikni qanday nazariya sifatida ilgari surdi?	*hissiy idrok etish nazariyasi sifatida
370.	Nafosatshunoslik fani mohiyatiga qaysi ibora ko'proq mos keladi?	* go'zallik falsafasi
371.	Nafosatshunoslik o'z tadqiqot ob'ektiga faqat...	* nazariy yondashadi

372.	Ijtimoiy fanlar ichida nafosat falsafasiga eng «qadrdon» fan	* axloqshunoslik
373.	Nafosat falsafasining amaliy ahamiyati nimadan iborat?	* shaxs h issiy olamni boyitishdan iborat
374.	«Ta’limning ijtimoiylashuvi – ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish» masalasi hukumatimizning qaysi rasmiy h ujjatida alohida qayd etilgan?	*»Kadrlar tayyorlash Milliy Dastur»da
375.	Qadimgi Somirdagi san’at namunalari qaysi ko‘rinishda ko‘proq o‘z aksini topgan?	* badiiy adabiyot yodgorliklari ko‘rinishida
376.	Qadimgi Misr estetikasida go‘zallik qaysi mezon bilan o‘lchangan?	* foydalilik, manfaatdorlik mezoni bilan
377.	«Avesto»da go‘zallik timsoli sifatida e’tirof etilgan ma’buda:	* Ardivisura Anahita
378.	Qadimgi Xind estetik tafakuri qaysi manbalarda ko‘proq aks ettirilgan?	* Rigvedada

379.	San'at Suqrotning fikriga ko' ra	* taqlid orqali h ayotni in'ikos ettirish
380.	Go'zallikning eng muhim belgisini Arastu nimada deb biladi?	* uzviy yaxlitlikda
381.	Umumjahoniy dinlarning san'at bilan hamkorligi nimalarada o'z aksini topadi?	* diniy-badiiy ramz, qonun va idealda
382.	Ibn Sino estetikasida jismoniy go'zallik bevosita..	* qalb go' zalligi bilan belgilanadi
383.	SHe'ning (qo'shiq ning) Qur'on oyatlariga nisbatan oddiy kishini ko'proq junbushga keltirishiga qodir ekanini etti nuqtai-nazarga ko'ra isbotlashga harakat qilgan faylasuf	* Imom G'azzoliy
384.	G'azzoliy nazarida go'zallik bu -	* bilishning mahsuli
385.	Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davrida estetik tafakkur taraqqiyotining muhim sababi nima bilan belgilanadi?	* ilm-fan va san'atga oqilona munosabat bilan

386.	Alisher Navoiyning nafosat falsafasiga aloqador tazkirasi	* Majolis un-nafois
387.	Yapon gulchilik san'ati	* ikebana
388.	Edmund Byork ulug'vorlikning asosini nimada deb bilgan?	* dahshatli bo'lgan va dahshat uyg'otgan narsalarda
389.	Kant nazarida go'zallik	* manfaatsiz maftunlik va muhabbatning ob'ekti
390.	Kant ulug'vorlikdan olinadigan lazzatni nima bilan bog'laydi?	* go'zallik in'ikosi bilan
391.	Kantning fikricha, did borasida	* ham bahslashish, ham bahslashmaslik kerak
392.	«Erkinlikka yo'l faqat go'zallik orqali o'tadi» degan fikr qaysi faylasufga tegishli?	* SHillerga
393.	«Hissiy go'zallik ma'naviylikka, ma'naviylik esa moddiylikka olib boradi,» degan fikr kimniki?	* SHelling

394.	«Insonning nafosat tarbiyasi to‘g‘risida maktublar» asari qaysi nafosatshunos tomonidan yozilgan?	* SHiller
395.	Inson uchun ovutish manbai bo‘lib xizmat qiladigan tushuncha Nittshening fikricha nima?	* san‘at
396.	Jadidlar san‘atning qaysi turiga ko‘proq e‘tiborni qaratdilar?	* adabiyot va teatrga
397.	«Forig‘lanish» (katarsis) iborasini birinchi marta san‘at asariga nisbatan qo‘llagan faylasuf	* Arastu
398.	Jadid estetikasining shakllanishida muhim o‘rin tutgan uch vosita	* maorif, san‘at, matbuot
399.	SHopenhauer falsafani fandan ajartib, uni qaysi sohaga yaqinlashtiradi?	* san‘atga
400.	SHelling oliy qatordagi ideal san‘at sifatida qaysi san‘at turini e‘tirof etadi?	* adabiyotni